



SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

PhD, dots. **Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna**
Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Bizga ma'lumki mamlakatimizda sanoat korxonalarini rivojlantirishda investitsiyalarning roli katta ahamiyatga ega. Shunday ekan bugungi kunda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolish va iqtisodiyotni raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalarning o'rni beqiyos. Iqtisodiy faoliyatning amalga oshirilishi kapital bilan bog'liq bo'lib, foyda olish yoki iqtisodiy-ijtimoiy samaraga erishish maqsadida sarflangan mablag' investitsiya sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar, moliyalashtirish, investitsion faoliyat, sanoat korxonalari, tahlil, investitsiyalar portfeli, kapital.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

PhD, доц. **Набиева Саидахон Абдувахабовна**
Тошкентский государственный технический
университет

Аннотация. Как мы знаем, роль инвестиций в развитии промышленных предприятий в нашей стране очень велика. Поэтому сегодня, в условиях дальнейшего развития и либерализации экономики, роль инвестиций в укреплении макроэкономической стабильности, поддержании высоких темпов роста и обеспечении конкурентоспособности экономики несопоставима. Осуществление экономической деятельности связано с капиталом, а сумма, потраченная с целью получения прибыли или достижения экономической и социальной эффективности, рассматривается как инвестиция.

Ключевые слова: инвестиции, ценные бумаги, финансирование, инвестиционная деятельность, промышленные предприятия, анализ, портфель инвестиций, капитал.

MODERN METHODS OF INVESTMENT ACTIVITY IN THE DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES

PhD, **Nabieva Saidakhon Abduvahabovna**
Tashkent State Technical University

Annotation. As we know, the role of investment in the development of industrial enterprises in our country is very great. Therefore, today, in the context of further development and liberalization of the economy, the role of investment in strengthening macroeconomic stability, maintaining high growth rates and ensuring the competitiveness of the economy is incomparable. Carrying out economic activity involves capital, and the amount spent for the purpose of making a profit or achieving economic and social efficiency is considered as an investment.

Key words: investments, securities, financing, investment activity, industrial enterprises, analysis, investment portfolio, capital.

Kirish.

Ma'lumki bugungi kunda mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarish korxonalarida jahon amaliyoti asosida rivojlanish tajribasini O'zbekistonda qo'llashning samarali jihatlari sifatida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish, xususiy mulkni himoya qilish, iqtisodiyotda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan eng dolzarb masalalar hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar "Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi" degan tamoyil asosida olib borilishi tashkil etilmoqda (Mirziyoyev, 2016).

Bizga ma'lumki hozigi kunda kompleks rivojlanishiga erishish, iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish yuzasidan investitsion jozibadorlikni uzluksiz yaxshilab borish – har bir mamlakatdagi iqtisodiy siyosatning eng muhim qismi hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Xalqaro tajribada sanoat korxonalarida investitsion faoliyatni amalga oshirish va rivojlantirishning turli jihatlari Kerzner (2003), Archibald (2010), Kern (1994) va boshqa olimlar ishlarida ko'rish mumkin.

MDH davlatlarining taniqli olimlari Falsman (1999), Chernovskiy (1995) o'z ishlarida neft-gaz sanoatidagi investitsion faoliyat samaradorligini oshirishning asosini ta'minlovchi mexanizmlar ishlab chiqishgan.

Investitsiyalarning tahlili va turlari bo'yicha mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jo'mladan: respublikamizning iqtisodchi olimlaridan Karimov, Ibragimovlar (1999) chet el investitsiyalarining buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish masalalari bo'yicha izlanishlar olib boranganlar.

Shuningdek, iqtisodchi olim Astanakulov (2020) izlanishlari natijasida sanoat korxonalarida investitsiya faoliyati tahlilining tashkiliy, uslubiy hamda texnik jihatlari o'zaro bog'liqlikda amalga oshirish bosqichlarining metodologik sxemasini taklif etgan va investitsiya faoliyati tahlilining turlari bo'yicha asosiy vazifalarni qayd etgan.

Dunyo olimlari jumladan: Alex Kane, Zvi Bodie, Alan Marcus (2011) investitsiya muhiti, uning elementlari, qimmatli qog'ozlar tahlili, hosilaviy qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar portfelini boshqarish hamda risklar tahlili borasida izlanishlar olib borgan bo'lsa, Subramanyam (2014) esa korxonaning ichki (joriy va uzoq muddatli aktivlarga) va tashqi (qimmatli qog'ozlar, ulushli investitsiyalar, biznes birlashuvlari va h.z.) investitsiyalari tahlilining maqsad, vazifalari hamda uslubiyotini aniq ma'lumotlar bilan ko'rsatib bergan.

Shuningdek, Rossiyalik olim Savitskaya (2017) investitsiya faoliyati samaradorligi tahlilining asosiy yo'nalishlari sifatida investitsion faoliyat hajmi tahlili, real investitsiyalar, moliyaviy qo'yilmalar samaradorligi tahlili, investitsiya loyihalari samaradorligi va moliyalashtirish manbalari tahlili bo'yicha tadqiqotlar olib boranganligini qayd etishimiz mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda sanoat korxonalariga investitsiyalarni keng jalb qilish, qulay investitsiya muhitini barpo etish, ichki va tashqi moliyaviy manbalardan samarali foydalanish juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda aytishimiz kerakki, taraqqiyotimizning so'nggi besh yildagi yangi yo'nalishlarini belgilab beruvchi Harakatlar strategiyasida ham "ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish" va "xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlarni siyosatini amalga oshirishni davom ettirish" ustuvor vazifalar deb qaralmoqda. Respublikamizda xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratishga alohida e'tibor ko'rsatilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy-tadqiqot ishida tajriba-eksperimental, tanlab kuzatish, taqqoslash, baholash kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Respublika sanoat korxonalariga investitsiyalarni jalb etishda bir qator omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mamlakat misolida tahlil etsak, aholi soni va ularning joylashuvi, ishlab chiqarish kuchlarining taqsimoti hududlar bo'yicha turlichadir. Bu hududlar o'zining shart-sharoiti, tabiiy resurslarga egalik qilishi, iqtisodiy markazlarning mavjudligi hamda ularning rivojlanish darajasi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Yuqorida keltirilgan omillar investorlarning o'z kapitalini yuqori potensialga ega bo'lgan mamlakatlarga kiritib foyda olishga yordam beradi. Shunga ko'ra, jahon iqtisodiyoti rivojlangani sari davlatlararo kapital harakati tobora globallashib borayotgan bitr davrda, xalqaro kapital oqimi har qanday o'zgarishlarga sezgir bo'lib, qaysi davlatda qulay investitsiya muhiti yaratilgan bo'lsa, shu davlatga investitsiyalar oqimining harakati tobora rivojlanib bormoqda.

Dunyo mamlakatlar jumladan: Amerika Qo'shma Shtatlari, Sharqiy Osiyo va Yevropa Ittifoqiga kiruvchi aksariyat rivojlangan davlatlarda investitsiya chiqarish hisobiga yalpi ichki mahsulotini (YAIM) ko'tarish dolzarb muammolardan biri bo'lsa, ba'zi mamlakatlarda ichki investitsion imkoniyatlarga tayanish bilan bir qatorda, aksincha chet davlatlaridan investitsiyalarni jalb qilish hisobiga YAIM ko'rsatkichini yuksaltirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblangan (Xaydarov va boshqalar 2012).

Ma'lumki, investitsiyalar oqimidagi global o'zgarishlar qulay investitsiyaviy muhitni rivojlantirish, samarador biznesni yuritishga qaratilgan imtiyoz va preferensiyalar taqdim etilishi, institusional sharoitlarni takomillashtirish borasida mamlakatimizda ham qator islohotlar o'tkazilishida o'z aksini topmoqda.

Shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga investitsiyalar, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, davlat mulki xususiyashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, viloyat, tuman va shaharlarni kompleks ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirishga doir ko'plab ustuvor masalalar belgilab berilgan.


Sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, ularning raqobatdoshlik darajasini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari doimiy e'tiborimiz markazida bo'lishi kerak. Shuning uchun xorijiy sarmoyalar va ilg'or texnologiyalarni hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarini barcha sohalarga yanada faol jalb etishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Shunday ekan, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2030-yilgacha respublikamizda yalpi ichki mahsulotini 2 barobardan ziyod ko'paytirishga erishishimiz darkor" deb ta'kidlanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda investitsion faoliyat va uning bozor mexanizmini tashkil etuvchi barcha tarmoqlarni rivojlantirish, ular orqali iqtisodiyot kompleksiga investitsiyalar oqimini rag'batlantirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi (1-rasm).

Ma'lumki johonda rivojlangan ko'pgina mamlakatlar amaliyotida erkin iqtisodiy hududlar ichki va tashqi investitsiyalarni milliy iqtisodiyotning alohida tanlab olingan hududlariga keng jalb qilishning zamonaviy usullaridan biri ekanligi bizga ma'lum. Shuni alohida ta'kidlash joizki, erkin iqtisodiy hududlar amalda jahon kapital bozorida suzib yurgan investitsiyalar uchun "qopqon" vazifasini o'taydi. Shuning uchun, rekspublikamizda erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish borasida olib borilayotgan ishlar muhim o'rin egallaydi. Kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va roli tahlilchilar tomonidan har tomonlama o'rganilib, uning ustunliklari va zaif jihatlari chuqur tadqiq etilishi lozimligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotga erkin iqtisodiy zonalar orqali investitsiyalarni jalb etish borasida xorijiy mamlakatlar tajribasi. Ya'ni kichik sanoat zonalarining mamlakatimizda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan choralardan biri – xorijiy mamlakatlarning hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish, ayrim sanoat tarmoqlarini qayta tiklash va faoliyatini takomillashtirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish maqsadida erkin iqtisodiy hududlar va kichik sanoat zonalarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan amaliy tajribalarini o'rganib chiqish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Shuningdek, bir qator xorijiy mamlakatlar, jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH), Malayziya, Yaponiya kabi davlatlarda kichik sanoat zonasi shaklida faoliyat olib boruvchi hududlar va sohalar bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni ko'rib chiqish zarur.



1-rasm. Investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmi (Karimov, 2007)

Misol uchun AQSH – iqtisodiy salohiyati va rivojlanish darajasi bo‘yicha dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biri. Oxirgi iqtisodiy kuzatishlar asosida aytish joizki, ushbu mamlakatning iqtisodiy holati va rivojlanish darajasining dinamikasi jahon iqtisodiyotining o‘zgarishlari tendensiyasiga jiddiy muammo to‘g‘dirmoqda.

Mamlakatda iqtisodiyot rivojlanishidagi eng muhim xususiyat – bu jaxonning boshqa mamlakatlarida takrorlanmaydigan xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi ulu-shining yuqori bosqichda turganligidadir.

Bugungi kunga kelib statistik ma‘lumotlarga qaraganda, iqtisodiyotda band bo‘lganlar va mamlakat YAIMning 80 foizdan ortig‘i xizmatlar sohasiga to‘g‘ri kelmoqda. AQSHda qo‘llaniladigan “ko‘rinmas qo‘l qoidasi”ga asoslangan makroiqtisodiy rivojlanish modeli iqtisodiyotni o‘z-o‘zini boshqarishning bozor mexanizmi asosida qurilgan, davlat mulkchiligining kichik ulushi va ishlab chiqarish jarayonida davlatning sezilarli bo‘lmagan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solishini bilan karakterlanadi.

Erkin iqtisodiy hududlar AQSH iqtisodiyotdagi muhim yetakchi tarmoqlarning tayan-chlaridan biri hisoblanadi. Bu orqali tashqi iqtisodiy faoliyat, ichki savdo aylanmasi va tadbirkorlik sohasida qulay infratuzilmani yaratish va rivojlantirish kabilar jadallik bilan muvaffaqiyatli amalga oshirilib kelinmoqda. Shunday ekan mamlakatdagi erkin iqtisodiy zonalar iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishda eng muhim masala ekanligini qayd etishimiz mumkin.

Bizga ma‘lumki hozirgi kunda Yaponiya – jahon iqtisodiyotida YAIM bo‘yicha 2-o‘rinda turuvchi rivojlangan mamlakat hisoblanadi. Mazkur mamlakat noyob va ayni vaqtda murakkab geografik o‘ringa ega. Yaponiyaning tabiiy potentsiali haqida so‘z yuritganda, mamlakat hududida tabiiy foydali qazilmalar juda kam (faqatgina ohaktosh, oltingugurt va ko‘mir qazib olinadi), qishloq xo‘jaligi yerlarining 13 foiz qayta ishlashga muhtojligi ko‘rinib turibdi.

Lekin, iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lgan rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Bunday ulkan iqtisodiy salohiyatda “Yapon mo‘jizasi” alohida o‘rin egallashi shubxasiz. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1868 yilda bo‘lib o‘tgan Meydzi inqilobidan keyin Yaponiya yuz yil davomida feodal davlatdan rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatga aylanganligi ma‘lum. Shu o‘rinda 1998 yildan Butunjahon Savdo Tashkilotining a‘zosi bo‘lgan Yaponiya yuqoridagilarni milliy iqtisodiyotiga tezlikda tatbiq etganligi bois, hozirgi kunda tayyor mahsulotlar eksporti bo‘yicha dunyo bo‘yicha 3-o‘rinni (jahon eksportining 7,2 foiz), import bo‘yicha 5-o‘rinni (dunyo importining 5 foiz) egallab kelshi hammamizga ma‘lum. Bunday holatga dunyo iqtisodchi olimlari tomonidan mamlakatning “super darajada sanoatlashtirish siyosati” asosiy sabab qilib ko‘rsatiladi (Vaxabov va boshq. 2015).

Ushbu qorida ko'rsatib o'tilgan iqtisodiy siyosat zamirida ma'lum hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Misol uchun: "Valyuta aylanmasi va tashqi savdo to'g'risida", "Yaponiyada import va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" va "Tarkibiy islohotlar bilan bog'liq bo'lgan maxsus hududlar to'g'risida"gi qonunlar qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

Shunga qarab, mamlakatda maxsus iqtisodiy hududlar tuzilishi yanada rivojlanishi yuqori darajaga ko'tariladi. Bizga ma'lumki Yaponiyada 2003-yilda qabul qilingan "Tarkibiy islohotlar bilan bog'liq bo'lgan maxsus hududlar to'g'risida"gi qonunga muvofiq, alohida rivojlantirishga muhtoj bo'lgan, modernizatsiya qilish uslubini o'zgartirish talab etiladigan sohalarga ixtisoslashtirilgan hududlar bilan ishlash uchun maxsus iqtisodiy hududlar joriy qilindi.

Bu maxsus hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni olib kirish orqali yuqoridagi muammolar o'z yechimini topadi. Shuningdek, maxsus hududlarni tuzishda mahalliy hukumat organlari yoki alohida ishbilarmon doiralari tashabbuskor bo'lishi lozim.

Shunday qilib, respublikamizda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hisobiga qulay investitsion muhitni yanada yaxshilash, buning uchun rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish va mamlakati-miz hududlarining investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish kerak bo'ladi.

Jo'mladan: Respublikamizning barcha viloyatlarida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga qaratilgan "yo'l xaritasi" mexanizmiga asoslangan hududiy rivojlantirish Konsepsiyalarini ishlab chiqish kerak. Bunda har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarning mavjudligi balanslangan hududiy investitsion siyosatni shakllantirish va yuritish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, bu viloyatlarda investitsiyaviy faollikning sezilarli darajada o'sishini ta'minlaydi, zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etishda moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi va hozirgi kunda dolzarb hisoblangan yangi ish o'rinlari sonining ko'payishiga olib keladi. Ya'ni, ijtimoiy sohaning mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, aholi pul daromadlari va ularning to'lov qobiliyatiga ega talablari ko'payishini ta'minlab beradi (Ibragimova, 2020).

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha AQSH, Yaponiya hamda Malayziya kabi mamlakatlarning eng maqbul tajribalaridan kelib chiqqan holda ijobiy natijalarini amaliyotga joriy etish kerak. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishda Yaponiya tajribasidan kelib chiqqan holda, bozor iqtisodiyoti islohotlariga bog'liq bo'lgan sohalarda kesimida maxsus kichik erkin iqtisodiy hududlar, jo'mladan, yirik oliy ta'lim muassasalari qoshida texnoparklar tashkil etish va ularni sanoat-ishlab chiqarishdagi innovatsion faoliyatga keng jalb etish va bu orqali yirik oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy xodimlarining o'z ishlanmalari uchun olgan patentlari uchun tajribalarni amalga oshirish maqsadida maydonlar ham yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu o'rinda shuni aytish joizki, Malayziya davlatida amaliyotga keng tadbiriq etib kelinayotgan doimiy eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarining ichki investitsiyalarini rag'batlantirishga qaratilgan "litsenziyalangan ishlab chiqarish zonasi" sifatida ro'yxatdan o'tishi va erkin iqtisodiy zonalarda uchun mo'ljallangan soliq imtiyozlardan to'la foydalanish bo'yicha mexanizmni qo'llash bugungi kunda o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatishi mumkin bo'ladi.

Ma'lumki Respublikamizda sanoat korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda turli yo'nalishlarda ishlar yuqori ko'rsatkichlarda olib borilmoqda. Shuningdek, mazkur bajarilayotgan ishlarni bugungi kunda dunyoda rivojlanayotgan davlatlar qatoriga qushish va xalqaro tajriba asosida jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda mamlakatlar barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun kuchli raqobat muhitiga ega bo'lgan dunyo bozoridan munosib o'rin olishga harakat qilinmoqda (Nabiyeva, 2023).

Mamlakatimizda ham barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy manbalaridan biri sifatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni yanada kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida aytishimiz kerakki, xalqaro kompaniyalar orqali kirib keladigan xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotda innovatsiyalar va yuqori texnologiya-larni rivojlantirish, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, inson kapitalining sifat jihatdan yaxshilanishiga samarali yordam ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida respublikaning investitsion jozibadorligini oshirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning rolini o'rganish asosida quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

Jumladan: Respublikaning investitsion jozibadorligini oshirishda, avvalo, davlat tomonidan xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratilishi kerak. Bunda mavjud qonunchilik amalda ishlashi va turli investitsiya risklarini kamaytirish choralarini ko'rib chiqilishi xorijiy investorlarni jalb qilishda muhim rol uynaydi.

Shunday qilib, O'zbekistondagi sanoat korxonalariga xorijiy investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri jalb etishda uning to'g'ri yo'nalishlarini va xalqaro tajriba asosida qo'llash, shuningdek, investitsion jozibadorlikni oshirish uchun chet el mamlakatlari tajribalaridan oqilona foydalanish, investitsiya siyosatini yuritishda alohida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlarni aniqlashda xalqaro tajribalarni mamlakatimizda joriy qilish va moslashtirish lozimligini ko'rsatadi. Asosan buning natijasida ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinlari joriy etish hamda respublika iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishi ta'minlanadi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganadigan bo'lsak, chet el investitsiyasi jalb qilinishi ushbu mamlakatlarning yuqori bosqichda taraqqiy etishida hal qiluvchi jihatlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizga olib kiritilayotgan investitsiya loyihalarini, birinchi navbatda ustuvor tarmoqlarga, jumladan: neft va kimyo sanoati, transport, energetika, yer osti boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini va ularni qayta ishlashga, turizm sohasini yanada rivojlantirishga qaratilishi kerak. Buning natijasida Respublikamizning rivojlanishida, yuqori bosqichlarda taraqqiy etishida zamin yaratiladi.

Mamlakatimiz juda katta xorijiy investitsiyalar yo'naltirayotgan davlatlar qatoriga kirishi uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator qulayliklar ega. O'zbekiston dunyo hamjamiyati oldida o'zining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darajasi, jaxon xaritasida geografik joylashishi, tabiiy resurslarni tarkibi va zaxirasi, mamlakatimiz tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonning rivojlangan davlatlari tajribasiga nazar tashlasak, xorijiy investitsiyalar davlat iqtisodiyotini barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlashda eng muhim dolzarb masala hisoblanadi. Shunga ko'ra respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish masalasini iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida o'rganib chiqishimiz kerakligini ko'rsatadi.

Chet el investorlari uchun o'z kapitalini tezroq olib chiqib ketmasdan, uni qayta investitsiya qilishga undaydigan rag'batlantirish tizimini yaratish" lozim deb aytganlari bunga misol bo'la oladi.

Yuqoridagi o'rganishlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiya ishtirokidagi sanoat korxonalarining mavjudligi raqobatni rag'batlantirib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni raqobatchilik muhitida g'olib chiqishlarida xorijiy tajribalarni o'rganishga va ulardan namunalar olishga asos bo'ladi. Bunda nafaqat texnologiyalarning darajasini oshirilishiga, shuningdek, cheklangan resurslardan oqilona foydalanishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda respublikamizga olib kirilayotgan xorijiy investitsiyalar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushi davlat kafolati ostida xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushiga qaraganda ancha ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin.

Adabiyotlar / Jumepamyra / Literature:

Astanakulov O.T. (2020) *Korxonalar investitsiya faoliyati tahlili metodologiyasini takomillashtirish. -T.: TMI, iqtisodiyot fanlari doktori (Dsc) dissertatsiyasi avtoreferati, -16 b.*

Bodie, Zvi. (2011) *Investments / Zvi Bodie, Alex Kane, Alan J. Marcus. —9th ed. p. cm.—(The McGraw-Hill/Irwin series in finance, insurance and real estate), P.994*

Ibragimov A.K., Karimov A.A. (1999) *Xorij sarmoyalari buxgalteriya hisobi. - T.: O'zbekiston, - 144 b.*

Ibragimova S.A. (2020) *Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish istiqbollari // Jurnal: MOLIYA, TDMI, 1-son, 115 - 123 bb.*

Karimov N.G'. (2007) *Iqtisodiy integrallashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari.i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - 235 bet*

Kern W. (1994) *Investitionsrechnung/ W. Kern. – Stuttgart, - 528 c.*

Mirziyoyev Sh.M. (2016) "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi // Xalq so'zi, 2016 yil 15 dekabr

Nabiyeva S.A. (2023) Sanoat korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari, TDTU «Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti: muammo va yechimlar» mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Maqolalar va tezislar to'plami 2023 yil 2 may.

Subramanyam K.R. (2014) *Financial statements analysis. 11th edition.* –New York, "McGraw-Hill Education", -P.701

Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. (2015) *Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: dasrlik.* – Toshkent. Baktrisa press, 88-89 – b.

Xaydarov N., Ubaydullayeva S., Mahkamova N. (2012) *Investitsiya: muammo va yechimlar.* O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. Risola. –T.: Akademiya, y. 8-bet.

Арчибальд Р.Д. (2010). *Управление высокотехнологичными программами и проектами.* - М.: Компания АйТи; ДМК Пресс. -464 с.

Керзнер Г., Мамонтов Е. (2003) *Стратегическое планирование для управления проектами с использованием модели зрелости.* – М.: ДМК.

Савитская Г.В. (2017) *Экономический анализ: учебник—14-е изд., перераб. и доп.* –М.: ИНФРА-М., –649 с.

Фальцман В.К. (1999) *Оценка инвестиционных проектов и предприятий / В.К.Фальцман.* – М.: Теис, – 56 с.

Черновский А.К. (1995) *Инвестиционная стратегия в условиях финансового рынка России: автореферат дис. на соиск. уч. ст. к. э. н.: 08.00.01: защищена 1995 /Черновский Алексей Константинович.* – М.: – 22 с.